

## TERMIZ SHAROITIDA AMARANTHUS L. NI O‘STIRISHNING AHAMIYATI

**Hayitova Shaxlo Davlatovna,**

Biologiya fanlari falsafa doktori

**Olimjonova Mavluda Olimjon qizi,**

Termiz davlat universiteti 1-kurs magistri

E-mail: [olimjonovamavluda66@gmail.com](mailto:olimjonovamavluda66@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Amaranthus L. ning kelib chiqish tarixi, biologik xususiyatlari, dorivorligi, xo‘jalikdagi ahamiyati va qo‘llanilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Termiz sharoitida amarant o‘simligini urug‘ unuvchanligi bo‘yicha olingan tadqiqot natijalariga asoslanib xulosalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Amaranthus L., iqlim, oziq-ovqat, yem-xashak, dorivor.

## THE IMPORTANCE OF GROWING AMARANTHUS L IN TERMEZ CONDITIONS

**Abstract:** The article provides information about the history of origin, biological properties, medicinal, economic importance and application of Amaranthus L. Conclusions are made based on the results of research on seed germination of amaranth plants in Termez conditions.

**Key words:** Amaranthus L., climate, food, fodder hay, medicinal.

**Kirish.** So‘nggi yillarda dunyo bo‘yicha aholi sonining ortib borishi va unga muvofiq ravishda urbanizatsiyaning jadal rivojlanishi natijasida iqlimda o‘rtacha haroratning ko‘tarilishi va ekologik muvozanatning buzilishi sharoitida O‘zbekistonda ham suv tanqisligi va sho‘rlangan ekin maydonlarining ortib borishi kuzatilmoqda. Bu esa o‘z navbatida tabiiy bioxilma-xillikni kamayishini oldini olish,

uni asrash va barqaror rivojlanishini ta'minlash kabi tadbirlarni amalga oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Hozirgi vaqtda aholi farovonligini oshirish borasida sifatli oziq-ovqat va dori-darmon bilan yetarlicha ta'minlash asnosida tabiiy mikroflorani saqlab qolgan holda stress omillarga chidamli, kam suv talab etiladigan o'simliklarni yetishtirish va xalq xo'jaligining turli sohalariga tatbiq qilish zarurligini ko'rsatadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 dekabrda PQ-58-son "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorning 3-yo'nalishida 2022-2023-yillarda hududlarning tuproq iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, har bir tumanda xususiy sektorni jalb qilgan holda bog' va tokzorlarni barpo etish, sabzavot, kartoshka, poliz, dukkakli va moyli ekinlar, dorivor o'simliklarni yetishtirish bo'yicha ko'rgazmali dala maydonlarini tashkil qilish, ekinlarni qayta ishlash, eksport qilish bo'yicha seminar treninglar o'tkazib borish bo'yicha ilmiy tadqiqotchilarga ma'suliyatli vazifalar yuklangan [1]. Xususan shunday ekinlar orasida hozirgi kunda mamlakatimizda noan'anaviy o'simliklardan biri bo'lgan *Amaranthus L.* turkumiga mansub o'simlik turlarini mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirish, yangi navlarini yetishtirish va ularni qayta ishlash yuzasidan muayyan ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston iqlim sharoitiga mahalliyashtirilgan amarant urug'larini qayta ishlash asosida olingan mahsulotlarni kimyoviy tarkibini, biologik va farmakologik xususiyatlarini o'rganish borasida tadqiqot olib borish hamda ularni xalq xo'jaligining turli sohalariga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Amarant o'simligi hozirgi kunda dunyo qishloq xo'jaligida nafaqat donli va yem-xashak ekini bo'libgina qolmay, balki moyli, dorivor hamda manzarali o'simliklardan biri sifatida alohida o'rin tutadi.

Mamlakatimizda mahalliy tilda gultojxo'roz (*Amaranthus*) deb ataluvchi turkumning 10 ta turi keng tarqalgan. Shulardan begona o't sifatida eshakhmachin (*A. blitum*), machin (*A. retroflexus*) begona o't sifatida sug'oriladigan ekinlar orasida keng tarqalgan. Gulxonlarda manzarali o'simlik sifatida qizil quyruq machin (*A.*

caudatus) ekiladi. Bazan vohalarda yovvoyilashgan turlari ham uchraydi. O‘zbekistonda uchraydigan turlarining ko‘pchiligining vatani Amerika va ular turli davlatlarda turlicha sabablarga ko‘ra O‘rta Osiyoga keltirilgan, mahalliylashib qolgan [6].

Qo‘llanilishi va ahamiyati. Amarant urug‘lari tarkibi proteinga boy bo‘lganligi tufayli oziq-ovqat sanoatida foydalanish uchun katta istiqbolga ega [7]. Dunyoda amarantning 12 turi ekiladi va sabzavot, don, ozuqa va manzarali o‘simliklar sifatida ishlatiladi. Don tulariga *A. cruentus* L., *A. hypochondriacus* L. va *A. caudatus* L. kiritilgan bo‘lib, chunki ular oziq-ovqat uchun ishlatiladi. Amarantdan yong‘oq hidli un yoki yorma shaklidagi urug‘laridan ko‘plab parhez mahsulotlar: non, makaron va qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun oziq-ovqat qo‘shimchlari sifatida ishlatilishi mumkin. Yem-xashakbop amarantdan esa yashil massa yoki don shaklida yuqori sifatli ozuqa olish, silos, vitamin uni va granulalar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Yashil massa barcha uy hayvonlari tomonidan yaxshi iste‘mol qilinadi, unig ratsionga kiritilishi chorva mollari mahsulotining miqdori va sifatining oshishiga yordam beradi. Amarant tuproq unumdorligini oshirishda yashil organik o‘g‘it bo‘lib ham xizmat qiladi. Uning yorqin qizil yoki sariq gullari juda chiroyli manzarali o‘simlik sifatida ishlatiladi [8].

Dorivorlik xususiyati. Amarant doni tarkibidagi skvalen inson organizmida lipidlar va steroidlar almashinuvini boshqarishda xizmat qiluvchi antioksidant himoyaning eng muhim komponenti sifatida tan olingan [2]. Amarant uning tarkibida 0,2% ga yaqin vitamin E faol kotrienol shaklida mavjud [4].

Biologik xususiyatlari. Amarant o‘simligi amarantdoshlar oilasining turlarga boy bo‘lgan gultojixo‘rozdoshchalar deb nomlanuvchi kichik oilachasiga mansub turkum hisoblanadi. Amarantdoshlar (*Amaranthaceae*) oilasining 65 turkum va 850 ga yaqin turlari Amerika va Afrikaning tropik va subtropik hududlarida tarqalgan bir yillik va ko‘p yillik o‘tlardir, lekin ular orasida yarim butalar, butalar va lianalar ham mavjud. Amarant bir yillik, o‘q ildiz tizimi yaxshi rivojlangan o‘simlik. Bo‘yi 2,5-4 metrgacha yetadi. Amarant barglari navbat bilan yoki qarama-qarshi joylashgan, butun va yonbargsiz. Gullari barg qo‘ltig‘ining ustki qismida joylashgan, to‘pgul

hosil qiladi, bir jinsli bazan ikki jinsli gullarga ega. Urug‘lari juda kichik, silliq, kuchli qobiqli, mevadan tushishga yaxshi moslashgan [3].

Amarant urug‘lari issiqlik va yorug‘likka talabchan. Urug‘lar +23,+25°C da laboratoriya sharoitida yaxshi unadi, 1000 dona urug‘ning vazni 0,67 grammni tashkil etadi [5].

Amarantning urug‘ unuvchanligi Termiz shahrida xona sharoitida ikki xil oddiy tuproq va biogumusda o‘rganildi. Kuzatuvda ekilgan urug‘lar 84% va 95% unib chiqqanligi aniqlandi.

Adabiyotlarni tahlil qilish va olib borilayotgan tajribaga asoslangan holda aytish mumkinki, o‘simlik yuqori urug‘ unuvchanligiga ega bo‘lib, uni Termiz sharoitida o‘stirish mumkin.

Shunday qilib, amarant ozuqaviylik va vitaminlarga boy tarkibga ega o‘simlik bo‘lib, inson organizmini kerakli bo‘lgan faol birikmalar bilan ta‘minlaydi hamda uni kunlik ratsionga kiritish zaruriy shart hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 dekabrda “Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-58-sonli qarori.
2. Cai Y., Sun M., Corke H. Antioxidant Activity of Betalains from plants of the Amaranthaceae // J. Agric Food Chem. 2003. P. 2288-2294.
3. Fyodorov A.A., Taxtdjyan A.L. “Jizn rasteniy v shesti tomax”. Svetkovie rasteniya Tom 5. Chast 1. Moskva 1980. 430s.
4. Kadoshnikov S.I., Kadoshnikova I.G., Galiullina A.S., Chernov I.A. Farmakologicheskie svoystva amaranta // Agrarnaya Rossiya. 2001. №6. S.39-42.
5. Pazilbekova Z.T., Eryigitova S. Amarant (Amaranthus) o‘simligi urug‘larining unuvchanligi va dorivorlik xususiyatlari. Toshkent-2021. O‘zbekiston agrar xabarnomasi. №2 (86/2), 2021, 159-161-b.



6. Pratorov O‘., Odilov T. “O‘zbekiston yuksak o‘simliklari oilalarining zamonaviy tizimi va o‘zbekcha nomlari” 1999.
7. Shmalko N. A. Bioximicheskie svoystva produktov pererabotki semyan amaranta. V mire nauchnix otkritiy 2010. 1-4, S.169-175.
8. Chirkova T.V. Amarant – kultura XXI veka // Sorosovskiy obrazovatelniy jurnal, 1999. №10. S.22-27.

